Terini yuvib bulgandan keyin suvini sirkib tushishligi muddati 1 soatdan ko'p vaqt terini sirkishiga qoldiriladi. Bunda bakterilarni inchil tanachalarni kupayishiga sharoit yaratib bergan bulish mumkin. Mana shu prosesslar butunlay tuganadan keyin terilar konservirovka qilinadi. Konservirovka uch xil usuli buladi: makrosol ya'ni teri tuzlanadi, teri vazniga nisbat 30-50% tuz sepiladi, lekin teri kuritilmaydi bunda terini namligi 45-48% ni tashkil qiladi. Ikkinchi usuli bu suxoslenqy, teri tuzlagandan keyin kuritiladi, bunda terini namligi 15% ni tashkil qiladi. Uchinchi usuli esa bu presno-suxoy, bu usul tuzsiz kuritiladi.

## 5-Ma'ruza: Chambop, muynabop va pustinbop terilarni tuzilish tarkibi

REJA:

1. Xayvonlarni terisining tuzilishi
2. Charmbop terilarning terisini tuzilishi
3. Muynabop terilarning terisini tuzilishi
4. Pustinbop terilarning terisini tuzilishi

**Adabiyotlar:**

1. Зокиров М.Д.Атамуродов К.А.Хайдаров К.Х. Хайвонлар хом ашёси товаршуносли. Тошкент, 1999 й

2. Каспарьянц С.А. Кошилёв А.Ф. шкутов Ю.Г Товароведение и технология первичной обработки кожевенного сырья. Москва Легкая индустрия, 1977 й.

3. Muynabop,po’stinbop va charmbop terilarni ishlab chiqarishni uslubiy qullanmalari. Toshkent, 2008 y.

4. O’zinform agroprom targ’ibot va ilmiy- texnikaviy axborotlar Respublika markaziy «Bildirish»lari.

5. Muynabop, po’stinbop va charmbop terilari Davlat standartlari. 2000 y.

Xayvonlarning teri qoplami juda murakkab tuzilishiga ega. Xayvonlarni terisi xujayrali va xujayrasiz moddalardan tashkil topgandir. Terini kundalangiga kesib zarabin (mikroskopda) yordamida kurilganda, teri tukimlari bir-birini ustida kolashib joylashganini xamda bir-biriga uzaro bog’laganligini, lekin ular bir-biridan tuzilishi bilan keskin ajralib turishini vazifalari, xam xar xil bulishi bilan xarakterlanadi. Kupincha xayvon terilari turta qavat bo’lishligi bilan farqlanadi: 1-chi epidermis yoki terining yuza qavati (terining ustiki qavati) ; 2-chi terining mag’z qavati yoki terining xaqiqiy charm qavati; 3-chi terining ostki tukimasi yoki (terining ostki qavati) ; 4-chi teri osti mushak kavati. Xayvonlarni (bakteriyalardan) kimyoviy moddalardan, muxanik jaroxatlardan asraydi. Bundan tashqari xayvonlarni tanasining uta sovuq yoki isib ketishdan moddalardan almashinuvini va tanada bo’lgan ma’lum miqdordagi suvni muxofaza qilib ushlab turish bilan. Terida ter chiqish bilan birgalikda parchalangan ayrim moddalar xam chiqib ketadi, shuningdek ma’lum darajada gazlar almashinuvi uglerod 4-oksidi $SO_2$ ajralib chikib, kislorod kabul qilishni bajarib turadi. Shundan tashqari teri sezgi organi qobiliyatini xam bajaradi. Bunda nerv organlarni uchlari joylashgan bo’lib ular xarakatni, og’riqni, siqilish nervlari xam joylashgan buladi.

Xar xil xayvonlarning terisini gistologik tuzilishlari karib bir xil bo’ladi.

1. Epidermis – epidermis yoki ustki qavatiga aytiladi.

Bu teri tuqimasining yuqori katlami xisoblanib kuplab qavatlangan qadoqlanib usti siniqlashgan tukimadan iboratdir. Epidermis vazifasi organizmini tashqi muhitdan yetkaziladigan barcha noxushliklardan muxofaza qiladi. Chuchka terilarida esa jun qoplami uta dag’al va siyrak joylashganligi sababli bu terilarning epidermis kalin buladi. Epidermis o’zining shaxsiy qon tomirlari bo’lmasligida dir shuning uchun xam bu tuqimaning xayot faoliyati, terini mag’z tukimasidan chiqib turuvchi suyuqlik modda bilan oziqlanadi.

Agar bu burtmalar bulmaganda bu qatlami oziqa moddalari bilan ta’minlanishi qiyinlashadi. Shulardan boglanishi mustahkamlab uni ustidagi qatlamini usishiga kulay sharoit yaratib beradi. Epidermisni qalinlashgan joylaridja yaxshi farklangan mag’zi va qobiq qavatlarga firolagan bular ekan. Molpigiya qavatini uzi esa uz qavatida ya’ni uta qatlamdan iborat buladi. Birinchi asosiy yoki tayyorlovchi qavat, 2-chi tursimon qavat, 3-chi esa donador qatlamdagi iborat bular ekan.

Qobiq qatlami uzining tuqimasini qobiqlash darajasiga qarab uta, ikkinchi darajani qavatlarga bulinadi. 1-chi och qatlam; 23-chi shaxsiy qobiq qatlam; 3-chi turlanuvchi qatlamlarga ajratiladi. Terini mag’z qatlami zarra tuzilishi (mikrostruktura) – terini mag’z qavati yoki xususiy (asosiy) charm qavati bog’lovchi tukimani bir turi xisoblanib epidermisnin tagida joylashgan bulib teri tukimasining asosiy kavati xisoblanadi.

Terini mag’z qavati xayvon tanasining mexanik javroxatlardan muxofaza qiluvchi , qalin qavat bulib epidermisni ushlab turuvchi qavat xisoblanadi. Vazifasi: issiqbardosh yoki retikulyar qavatiga bulinar ekan. Epidermis bilan terini mag’z qavatini chegarasida negiz parda (bazalnaya membrana) joylashgan bulib bu parda tolalardan tashkil topgan. Bu tolalar kimyoviy tarkibi bilan kollagen tolalardan bir muncha farq qilib qotilganda yemishiga (yemirilib) aylanmaydi. Asosiy pardada bundan tashqari elastin tolalar xam mavjudi ekan.

Negiz pardani tagida issiqbardosh yoki burtma qavat joylashgan bo’lib uning pastki chegarasida negizasoch tolasi piyozchalari va teri bezlari joylashgan bo’ladi ekan. Bu tolalar soch xaltachalari va charm bezlarini atrofida ayniqsa juda kam guj-guj bo’lib joylashgandir. Charm maxsulotlariga ishlov berganda (sirtini qoplab turgan tuqima) epiteliy qon utkazuvchi tomirlar, tuqima maydonlari parchalanadi va ularni olib tashlanadi.

Tur yoki retikulyar qavati – issiqbardosh qavati tagida joylashgan bo’lib, bu qavat charmni mustahkamligini, tarangligini chuziluvchanligini mexanik xususiyati ta’minlaydi, shuning uchun xam bu qavati mexanik qavatlab yuritiladi. Bu kavatda kollagen toalasining taramlari issiqbardosh qavatdagiga nisbatan qalinroq bo’lib murakkablashgan chigalikni tashkil qiladi.

6-Ma’ruza: **Charmbop, po’stinbop va mo’ynabop terilarni tovarlik xususiyatlari.**

**REJA:**

1. Terilarning maydoni va og’irligi.
2. Terilarning qalinligi va zichligi.
3. Terilarning jun qoplamining tuzilishi
4. Terilarning sath o’lchami.

**Adabiyotlar:**

1. Зокиров М.Д.Атамуродов К.А.Хайдаров К.Х. Хайвонлар хом ашёси товаршуносли. Тошкент, 1999 й

2. Каспарьянц С.А. Кошилёв А.Ф. шкутов Ю.Г Товароведение и технология первичной обработки кожевенного сырья. Москва Легкая индустрия, 1977 й.

3. Muynabop,po'stinbop va charmbop terilarni ishlab chiqarishni uslubiy qullanmalari. Toshkent, 2008 y.

4. O'zinform agroprom targ'ibot va ilmiy- texnikaviy axborotlar Respublika markaziy «Bildirish»lari.

5. Muynabop, po'stinbop va charmbop terilari Davlat standartlari. 2000 y.

Charmbop, po'stinbop va mo'ynabop terisini xom ashyolarining buyumlik xususiyati, yarim fabrikatlarga ishlov berish, sotib olishdagi narxlari, to'g'ridan-to'g'ri ularning fizika-mexanik xossasiga bog'liqdir. Bularning ichida eng muhim axamiyatga ega bo'lganlari terining maydoni- vazni, qalinligi, junining o'siqligi, to'qimasining mustahkamligi va cho'zganda uzilishga chidamliligi hisoblanadi.

**Terining maydoni:** Keng maydonga ega bo'lgan terilardan anchagina ko'proq charm mahsulotlari olish mumkin, chunki bunday terilarni bichishda (ishlatilganda) maydoni keng bo'lganligi sababli, qiytimga ham kam chiqadi. Qo'y, echki, cho'chqa va bo'g'i terilarini qabul qilish va narx to'lash ularning maydoniga qarab aniqlanadi. Terining maydoni hayvonning turi zoti, jinsi, yoshi oziqlantirish va boqish sharoitiga bog'liq. Bundan tashqari terining maydoni ularning konservalashga qarab ham o'zgaradi. Tuzsiz konservalanganda terining maydoni o'rtacha 10 % ga, tuzlab quritilganda 6% ga qisqaradi. Qo'y va echki terilarining maydoni kvadrat disemetrlarda (terining enini bo'yiga ko'paytirish yo'li bilan, teri bo'yining yuqorigi qirrasida, quyrug'idan dumining asosigacha, jaydari , dumbali qo'y terilarini terilarini bo'ynini yuqorigi qirg'og'idan, orqangi oyoqlarining ) biriktiruvchi pastki cho'kmasigacha, enini esa oldingi oyoqlarini pastki cho'kmasidan 3-4 sm pastidan o'lchanadi.

Cho'chqa terilarini bo'yini eniga ko'paytirish yo'li bilan o'lchanadi. Terisini uzunligini, bo'ynining yuqori qismidan, orqangi oyoqlarining pastki cho'kmasigacha, enini esa oldingi oyoqlarining cho'kmasidan 8-10 sm pastidan o'lchanadi. Cho'chqa terilarini yaxlit bel qismini (krupe) desimetr kvadratlarda umurtqa pog'onasi chizig'i bo'ylab yuqorigi qirrasidan to pastigacha, enida esa yaxlit bel qismini teng o'rtasidan o'lchanadi. Terining eni va bo'yini o'lchaganda o,5 dan va undan ortig'i .

Qo'y va echki terilari tarang tortib quritilganda 10% maydonidan tashlab qabul qilinadi. Terining maydoni kengligini o'lchash uchun metr yoki

desimetrlarga bo’lib ko’rsatilgan rishotkalarda ( planjet) ya’ni yupqa taxta yoki organik shishani ichki tarafidan 1x1 $dm^2$ qilib to’rda chiziqlar o’tkazsa bo’ladi. .

Rejalagichni umumiy o’lchami 12x12 $dm^2$ dan iborat. Rejalagichni o’ng tarafidan tik tushirilgan yon tomonidan va pastki qismidan o’tgan 0,5 $dm^2$dan hoshiya qoldirilgan. Terini rejalagichga o’lchaganda, to’qima tarafini yuqoriga qilib shunday qo’yiladikim, teri uzunligini pastki nazorat nuqtasi rejalagichni etak qismini pastki qirg’og’i bilan ustma-ust tushsin, terining kengligini ung tomonini nazorat nuqtasi rejalagichni o’ng qirg’og’i bilan ustma-ust qo’yiladi. Terining maydonini, teri chap tomoni tanasidagi nazorat nuqtasini kesib o’tgan aylanmalarni tutashgan joyi standart (nazorat) nuqtasida joylashgan rejalagich raqami bilan belgilanadi, rejalagichdan foydalanish, qo’shimcha hisob kitoblar qilish uchun zaruriyat tug’dirilmaydi. Rejalagich teri maydonini tez va aniq belgilab beradi.

**Terining vazni –** ko’pgina charm xom ashyolarini xarid qilishda ularning vaxzniga qarab qabul qilinadi. Har bir terini 100 gr gacha aniqlikdagi son ko’rsatgichlariga ega bo’lgan tarozilarda o’lchash yo’li bilan aniqlanadi. Bunda 50 gr va undan ortig’i 100 gr deb, 50 gr dan kami hisobga olinmaydi. Terining vazni maydoni qalinligi,zichligi, teri qalinligini konservalash usuli va barcha og’irlashtiruvchilarga (go’sht-yog’ qoldiqlari, kesib tashlangan bo’lagi, qoramol terilarining kalla qismining terisi, (I) J.D.S ga rioya qilmay shilingan, qotgan qon laxtalari, ifloslikIar tuz va hakazolarga bog’liq). Terining vazni shuningdek xiliga, yoshiga, jinsiga, zotiga va uning semizlik darajasiga qarab o’zgaradi. Qoramollarni zo’r berib boqilganda 1,5 yoshga kirganining og’irligi 2-3 yoshidagi qoramol terisining og’irligi bilan tenglashadi. Yosh mollarning (hayvonlarning) terisining og’irligi tirik vazniga nisbatan 12% ni, qoramollar terisi esa 6% va undan ortiqroq bo’lishi mumkin. Yangi shilib olingan terilarning (konserviyalanmagan) sof vaznining 2 soatgacha sovutilib vazni aniqlaniladi, yuvilgan terilarning vaznini 2 soat ichida suvi sirqitilib keyin vazni aniqlanadi. Konserviyalangan terilarning vaznini, terida bo’lgan turli og’irlantiruvchilar ko’zda tutilib, me’yoriga yetkazib tuzlanmagan, tuz bilan haddan tashqari to’yintirilgan, me’yoridan ortiq quritib yuborilgan bo’lishi e’tiborga olingan holda aniqlaniladi. Barcha og’irlashtiruvchilarga va me’yoridan kam tuzlanganiga (nedosol) haqiqiy vaznidan, tashlab o’ta quritilgan va o’ta tuzga to’yintirilgan terilarga esa qo’shib o’lchanadi.

(I) J D. S da belgilangan nisbatlar asosida konservasiyalangan terilarning vaznini, ularning yangi shilib olingan terisining vazniga nisbatini qabul qilishda quyidagicha aniqlanadi.Foiz hisobida – yangi shilingan terini- 100, muzlatilgan-96, ko’p tuzlangan- 87, tuzli suvda to’yintirilib keyin quruq tuz bilan terini yoyib tuzlangani- 83, tuzlab quritilgan-50, tuzsiz quritilgani –40% deb qabul qilingan.

Bu nisbatlar ko’p tuzlangan terilarda, ularning tuzga to’yinish darajasiga qarab o’zgarib turadi. Tuzlab quritilgan va tuzsiz quritilgan terilarda ularning atrof muhitdan namlikni yutish darajasiga qarab o’zgaradi, chunki bu terilar o’zining uta

kam namlikni yutish qobiliyati bilan ajralib terining tuzga to’yinish darajasi va ko’p tuzlangan, tuzlab quritilgan tuzsiz quritilgan terilarning vaznini (I) J.D.S 13104-71 ga asosan teri tarkibida kalsiylangan soda va osh tuzini (I)J D.S 13105-67 ga asosan aniqlaniladi.

**Terining qalinligi:** Terining eng muhim xossalaridan biri bo’lib hisoblangan ishlab chiqarishda aniq maqsad uchun qo’llanilishini belgilab beradigan sifat ko’rsatgichlaridan biri bo’lib teri qalinligi hisoblanadi. Turli xil charm xom ashyosining yangi shilingandagi qalinligi 0,2 dan 25 mm gacha bo’lib turadi.

Terining qalinligi nafaqat uning turi, uning jinsi, yoshi, saqlanish sharoiti, oziqlantirilishi, terini konserviyalash usuli va teri satxining qismlariga qarab nisbiy o’zgarib turadi. Oddatda hayvonlar terisi, urg’ochisinikiga nisbatan notekis va sezilarli darajada qalin bo’ladi. Hayvon yoshi ulg’aygan sari uning terisini qalinligi ham asta sekinlik bilan qalinlasha boradi. Tuzsiz quritilgan terilarning qalinligi 25-40 foizga, tuzlab quritilgan terilarniki 20-30 % ga pasayadi (ingichkalashadi). Terini o’rta va pishiq qismi va yag’rini atrofi birmuncha qalin, etaklari va bo’yni biroz yupqa (kalla va oyoq qismlari o’ta qalin bo’lgan) navvos terilaridan tashqari. Chatlari oldingi oyoqlarining ichkari tomonlari o’ta yupqa bo’ladi. Ot terilarining sag’ri yag’riniga nisbatan qalinroq.

Teri qalinligini o’lchash uchun Meysker kullik o’lchovi qo’llaniladi, bu asbob bilan teri qalinligini barcha qismlari (namuna qirqib olinmay juni qirqib tashlanmay), tuz, go’sht va yog’lardan tozalab o’lchash mumkin.

Maysker qalinlik o’lchoviga taka singari tilga ega bo’lgan nomer bo’lib, uning ikkita oyoqchasi (yonoqlari) atroflari (cho’kkimtir) ilgak bo’ladi. Pastki oyoqchasi harakatsiz, yuqorigisi tayanch dastak yordamida ko’tariladi. Terini shu tayoqchalar oralig’ida kirgiziladi (yuqorigi oyoqchasini terini kirgizishdan oldin tayanch dastagi bilan ko’tariladi), undan keyin tayanch dastagi tushiriladi, teri qalinlik o’lchagichini ikkala oyoqchasi oralig’ida qisilib qoladi. Hisoblagich siferblayda aniqlanayotgan terining qalinligini 0,1 mm gacha aniqlikda ko’rsatadi. Qoramol terilarining qalinligini aniqlashda standart nuqta (N) deb, umurtqa pog’onasidan 200 mm yoniga va pastki oyoqlarining cho’qisidan 250 mm yuqoriga qarab o’tkazilgan chiziqlarni o’zaro kesishgan joyiga aytiladi.

**Jun qoplamining tuzilishi:** Terining maydon birligiga to’g’ri keladigan jun (soch) tolalari soni ko’p jihatdan teri to’qimasini pishiqligini aniqlaydi. Maydon birligiga qancha soch (jun) birligi to’g’ri kelsa shunchalik teri mustahkamligi sust bo’ladi. Junliligi yoki jun qoplamining vaziyati po’stin va movut beruvchi qo’y terilari uchun katta axamiyatga ega. Po’stin va movut ishlab chiqarishda qo’y junlarini o’rtacha balandligiga ega bo’lganlari yuqori baholanadi, chunki o’siq junli teri to’qimalarining soch (jun) tolalari ko’pincha chalkashib va yotib ketgan bo’ladi. Bunday qo’y terilari (po’stin buyim sifatida) uzoq muddat kiyish uchun

chidamsiz va movut sanoatida junni qirqishda katta noqulayliklar tug’diradi.Ingichka va quyuq jun qoplamiga ega bo’lgan ko’pgina qo’y zotlarini jun (soch) xaltachalari va charm bezlari bir tekislikda joylashgan shuning uchun ham issiqa bardoshli va to’r qavvatlarining bog’lanishi kuchsiz bu esa teri yuzini qobiqlanishi va burishmalar (ajinlar) hosil qilishiga sabab bo’ladi.

Mayin jun beruvchi qo’y zotlarining soch (jun) tolasining ildizlari tik emas balki buklangan holda joylashgan. Bu buklilik teriga ishlov berish tamom bo’lganidan keyin oshlangan charmga govaklik va cho’ziluvchanlik baxsh etadi. Charm olinuvchi qo’y terilarini odatda soch (jun tolasi) ildizlari tik joylashadi shu sababli ularning terilaridan yuqori sifatli charm olinadi. Po’stin va movut olinuvchi qo’y terilarini ishlab chiqishda ulardan foydalanishni birlamchi asosiy ko’rsatkichlaridan biri bo’lib, jun qoalamining uzunligi, ingichkaligi, qiyoqligi hisoblanadi. Jun qopla-mining uzunligiga qarab dag’al junli qo’ylar terisi junining uzunligiga to 2,5 sm.gacha bulganlari – junsiz 2,5 sm dan to 6 sm gacha yarim mayin junli 6 sm da baland jun qoplamiga ega bo’lganlari junli terilar deb yuritiladi. Movut olinuvchi quy terilari 1 sm dan to 2 sm gacha jun qoplamiga ega bo’lganlarining past junli 2 sm da 5 sm gacha yarim junli, 5 sm dan baland jun qoplamiga ega bo’lganlarining junli terilar deb aytiladi. Jun qoplamining taxminiy tekislab lekin cho’zmasdan jun qoplamini asosiga millimetrli o’lchagich qo’yib, junini balandligi o’lchanadi. Jun qoplamini tig’izligini, quyuqligini, jun qoplamini tuklarini ochib aniqlanadi. Qalin jun qoplamiga ega bo’lgan qo’y terilarining jun qoplamini taxlari ochib qaralganda, teri to’qimasi aniq ko’rinmaydi. Qo’y terilarining yana bir muxim klaridan biri bo’lib, jun qoplami bilan teri to’qimasi o’rtasida bog’lanishlik mustahkamligi hisoblanadi. Po’stin va movut beruvchi qo’ylarning terisini jun qoplamini tukilishiga yo’l qo’yilmaydi. Juni tukilib ketayotgan terilarni esa yelim olish uchun ajratiladi.

Terining zichligi – charm yarim fabrikatlarini fiziko-mexanik xususiyatlari – mustahkamligi, cho’ziluvchanligi, ishqalanishga qarshiligi harorat ta’siriga chidamliligi, suvga munosabati va boshqa ko’rsatgichlari terining zichligiga to’g’ridan –to’g’ri aloqadordir. Terining zichligi (puxtaligi) to’r qavvati qoplagan tolalarning o’ramlariga teri mag’z qatlamidagi yog’larning yig’ilib qolganligiga terini birlashtiruvchi qavatini bo’sh bo’lib qolishi va teri mag’z qavatining soch xaltachalari, shuningdek charm bezlari buklanganligi natijasiga bo’shashishiga ma’lum darajada bog’liq bo’ladi. Terining zichligi (organileptik) sezgi organlari bilan terining umurtqa aog’ona qismini qo’l panjalari bilan paypaslash orqali, aniqlanadi.Ho’l tuzlab konservalangan zich puxta terilar kanja bilan paypaslaganda tarang tog’aysifat teri mag’zi qavati bilan ajralib turadi.

**Terining sath** (yuzasi) – Hayvonlarning xiliga qarab ularning terilari turli shakl ko’rinishiga ega bo’ladi. Teri qismlarining umumiy (faoliyatlari) qalinligi va to’qimasining tuzilishi, shuningdek ularning xossalarini xarakterlanishi (tavsiflanishi)Fiziko-mexanik va kimiyoviy tarkibi – terining sathi deb aytiladi. Terining sathini bilish uchun uni to’g’ri konserviyalash, saqlash (asrash),

shuningdek to'g'ri oshlash va tayyor bo'lgan charmni samarali ishlatish uchun zarurdir. Qoramol terilarining oq chiziq bo'ylab tilinib shilingan joylarini, qismlarini ushbu qismlari nisbiy qalinligi va zichligi bir xildir: kallasi, yoqasi, chati, terining o'rta qismi, sag'ri, etaklari oyoqlari hisoblanadi. Bosh qismi ancha qalin va po'kkak tuzilishga ega. Terining o'rta qismi yoqadan to'g'ri chiziq orqali oldingi oyoq cho'kmalari orqali ajratilgan bo'lib yonboshidan oldingi va orqa oyoqlari cho'kmalari orasida birlashgan masofa etaklari bilan chegaralanadi.

Yoqasi va terining o'rta qismi, o'rtasidagi chegara oldingi oyoqlarining cho'kmasi orasidan o'tadi.Sag'ri terining o'rtasiga kiradigan maydonini dumg'oza o'zagidan to orqangi chatlarigacha bo'lgan masofani o'z ichiga oladi.

Terining o'rta qismini savrisiz maydoni, terining yaxlit bo'lagi yoki qismi deb ataladi. Terining o'rta qismining, teri mag'z qavatini tuzilishi o'zining murakkab to'qimalariga ega bo'lib, har tomonga qalin hosil qilib tolalari bir-biri bilan jips joylashgan. Bunday tuzilish terining o'rta qalin bel qismining uzilishiga mustahkam, cho'zganda ham cho'ziluvchan bo'lishligini taminlaydi. Terining o'rta bel qismining butun qalinligi bo'ylab zichligi va mustahkamligi deyarli bir xil.Terining bel qismini orqa va etak tarafiga qarab qalinligi asta-sekinlik bilan yupqalashib boradi. Faqat navvoz terilarida terining bel qismidan yoqasiga qarab qalinlashib boradi.

Yoqasi terining o'rta bel qismiga nisbatan pukkaroq, bu uni tayyor mahsulot bo'lganida baholanishini pasaytiradi. Yoqasining qalinligi notekis taqsimlanadi. Yuz qavatida burishlar bo'lib hayvonlarning orriq holda yaqqol ko'zga tashlanadi. Etaklari o'zining o'ta yupqaligi bilan ajralib turadi terining mag'z qavatiga nisbatan etaklari birmuncha po'kroq bo'ladi. Ayniqsa ko'p tulagan urg'ochi mollarning etak qismlari nisbiy yupqaroq va bo'shroq bo'ladi. Etaklariga chatlar tutashgan bo'lib, chatlari etaklariga nisbatan yupqa, cho'ziluvchan va bo'sh bo'ladi.

Old va orqa oyoqlaridan shilingan terilari o'zining yupqaligi, to'qimasining bo'shligi va kam pishiqligi bilan ajralib turadi.

Otlar terisining satxi bir muncha o'zgacha taqsimlanadi. Terining sag'ri qismi birmuncha qalin va pishiq, qolgan tolalari, tutamlari baquvvat bo'lib o'zaro tig'iz tola to'qimalarini tashkil qiladi. Sag'rining ikkita botiq tig'iz tuzilishiga ega bo'lgan qismi bo'lib, son suyagi izi (tuguncha) deb ataladi. Sag'ri o'zining qalinligi va mustahkamligi bilan, poyabzal, tag charmi ishlab chiqarish uchun yaroqlidir. Ot terisining yag'ri qismi, sag'ri qismidan birmuncha farq qilib, o'zining yupqaligi qalinlashgan tolasi tizimlarining kuchsiz to'qimalari bo'lganligi sababli aoyabzal ustki qism va ostarlik uchun ishlatiladi.

Sag'ri va yapog'i qismlarining, yuz tomonidan umurtqa pog'onasidan chatlari tarafiga qarab silliq yotgan junning farlaridan ajratiladi..

Cho'chqa terilarining qalin o'rta qismining qalinligi uncha katta bo'lmaydi. Yonlari, kurak va bellarida qalinligi bir muncha yupqaroq, terining eng yupqa qismi bo'lib,qorni, ko'kragi, chatlari, oyoq oraliqlari va ayniqsa kurak tarafi hisoblanadi. Nar cho'chqalarning yon taraflarida tog'ay o'simtalari bo'ladi. Cho'chqa terilari o'zining bo'shligi, po'kkakligi ko'p miqdorda yog' kataklari bilan qoplanganligi sababli farqlanib terilardan olingan tayyor mahsulotlar ingichka qarama-qarshi tomonga qarab o'tgan tirishlardan iborat bo'ladi.

7-Ma'ruza: **Terini tuzilishi, tartibi va fiziko-mexanik xususiyatlari.**

**REJA:**

1. Xayvonlar terisining tuzilish tarkibi.
2. Charmbop terilarning tuzilishi.
3. Muynabop terilarning tuzilishi.
4. Po'stinbop terilarning tuzilishi.

**Adabiyotlar:**

1. Зокиров М.Д.Атамуродов К.А.Хайдаров К.Х. Хайвонлар хом ашёси товаршуносли. Тошкент, 1999 й

2. Каспарьянц С.А. Кошилёв А.Ф. шкутов Ю.Г Товароведение и технология первичной обработки кожевенного сырья. Москва Легкая индустрия, 1977 й.

3. Muynabop,po’stinbop va charmbop terilarni ishlab chiqarishni uslubiy qullanmalari. Toshkent, 2008 y.

4. O’zinform agroprom targ’ibot va ilmiy- texnikaviy axborotlar Respublika markaziy «Bildirish»lari.

5. Muynabop, po’stinbop va charmbop terilari Davlat standartlari. 2000 y.

Xayvonlarning teri qoplami juda murakkayu tuzilishiga ega. Xayvonlar terisi xujayralari va xujayrasiz moddalardan tashkil topgan. Terini ko’ndalaniga kesib zarrabin (mikroskopda) yordamida ko’rilganda, teri to’qimalari bir-birini ustida qoplashib joylashganini xamda bir-biriga o’zaro bog’langanligini, lekin ular bir-biridan tuzilishi bilan keskin ajralib turishni vazifalari xam xar xil bulishi bilan xarakterlanadi. Ko’pincha xayvon terilari to’rtta qavat bo’lishi bilan farqlash mumkin. Birinchi **epidermis** yoki terining yuza qavati (terining ustki qavati); ikkinchi mag’z qavati yoki terining haqiqiy charm qavati; uchinchi terining ostki to’qimasi yoki terining ostki qavati; turtinchi terining osti mushak kavati. Hayvonlarning teri qavati asosan organizmni kasal tarqatuvchi mayda tangachalardan (batkriyalardan) kimyoviy moddalardan, mexanik jaroxatlardan asraydi. Bundan tashqari xayvonlarni tanasini sovib yoki isib ketishdan moddalarning almashinuvini va tanada bo’lgan ma’lum miqdordagi suvni muvozanat qilib ushlab turishi bilan. Teridan ter chiqishi bilan birgalikda parchalangan ayrim moddaldar xam chiqib ketadiYu shuningdek. Ma’lum darajada gazlar aldmashinuvi – uglerod 4-oksidi. Ajralib chikib, kislorod qabul qilishni bajarib turadi. Bundan tashqari teri sezgi organi qobiliyatini xam bajaradi. Bunda nerv organlarini uchlari joylashgan bo’lib, ular xarakatni, og’riqni xis qilish nervlari xam joylashgan bo’ladi.

Xar xil xayvonlarning terisini gistologik tuzilishlari bir xild bo’ladi.

1. Epidermis – terining ustki qavatiga aytiladi. Bu teri to’ыimasining yuqori qatlami xisoblanib, ko’plab qavatlangan, qadaqlanib usti siniqlashgan to’qimadan iboratdir. Epidermis vazifasi organizmi tashqi muhitdan yetkaziladigan barcha nohushliklardan muxofaza qiladi. Undan tashqari suvni tanadan bug’lanib chiqib kamaytiradi. Shuningdek. U suv bilan yog’ bezlarini ajratib chiqarganligi uchun terisini yog’lanishi natijasida terisi deyarli qo’llanilmaydi.

Cho’chqa terilarda esa jun qoplami o’ta dag’al va siyrak joylashganligi sababli bu terilarning epidermisi kalin bo’ladi, terining mag’z qavatiga ko’p sanli burmalari bilan botib kirgan bo’ladi. Bunna bo’rtmalar paydo bo’lshiga sabab epidermisda o’zining shaxsiy qon tomirlari bo’lmasligidadir. Shuning uchun xam to’qimaning hayot faoliyati, terini mag’z to’qimasidan chiqib turuvchi suyuqlik modda bilan oziqlanadi.

Agar bu bo’rtmalar bo’lmaganda bu qatlamni ozuqa moddalar bilan ta’minlanishi qiyin bo’lar edi. Bulardan tashqari burtmalar epidermis va terini mag’zi qatati urtasidagi bog’lanishni mutahkamlab ustidagi qatlamini o’sishigiga qulay sharoit yaratib beradi. Bunaqa qo’laylikldan epidermis juda tez qalinlashib ketishiga sabab bo’ladi. Terida soch o’sib chiqqan joylarida epidermis gidroblashgan chukurchalar paydo bo’ladi. Epidermis qalinlashgan joylarida yaxshi farqlangan molpigli va qobik qatlamlarga firolagan bo’ladi. Molpigli qavatini uzi esa uz qavatida ya’ni qatlamdan iborat buladi. Birinchi asosiy yoki tayyorlovchi qavat, ikkinchi – to’rsimon qavat, uchinchi esa donador qatlamdan iborat bo’ladi.

Qobiq qatlami o’zining to’qimasini qobiqlash darjasini qarab o’ta. Ikkinchi darajali qavatlarga bo’linadi. Birinchi och qatlam, ikkinchi shaxsiy qobiq qatlam, uchinchi to’rlanuvchi qatlamlarga ajratiladi. Bu qatlamlar o’zaro juda sust bog’langan bo’lib, osonlikcha girmashib tugashadi. Shuningdek, yangi qobiklangan chukur qatlamdan kutariladigan to’qimalar bilan yangilanadi. Shurlanish jarayoni juda katta ahamiyatga ega bo’lib, teri qatlamining ifloslanishiga xamda teri yuzasiga utirgan tekin xo’r xasharotlardan tozalab turish vazifasini bajaradi.

Terining mag’z qatlami zarra tuzilishi (mikrostruktura) terining mag’z qavati yoki xususiy (asosiy) charm qavati bog’lovchi to’qimani bir xisoblanib, epidermisning tagida joylashgan bo’lib, teri tuqimasining asosiy qavati hisoblanadi.

Terining mag’z qavati xayvon tanasini mexanik jaroxatlardan muxofaza qiluvchi qalin qavat bo’lib, epidermisni ushlab turuvchi qavat xisoblanadi. Terining mag’z qavatida soch tomirlari, teri bezlari, qon o’tkazuvchi tolalar xamda asab uchlari tomirlari joylashgan bo’ladi. Bundan tashqari bu qavatda kollagen, elastik va retikulin tolalari xam joylashgan bo’ladi.

Teri mag’z qatlamining ayrim qavatlarini gistologik tuzilishi turlicha bo’lib, unda ikkita noaniq chegagaralanadigan qavatni kuzatish mumkin ekan. Birinchisi issiq bardosh yoki retikulyar qavatgabo’linar ekan. Epidermis bilan terini mag’z qavatini chegarasida negiz parda (bazalnaya membrana) joylashgan bo’lib, bu parda terini mag’z qavatidagi kollagen tolalariga o’tgan ingichka to’r tolalardan tashkil topgan bo’ladi. Bu tolalar kimyoviy tarkibi bilan kollagen tolalardan bir

muncha farq qilib kaynatilganda yemishga aylanmaydi. Asosiy pardada bundan tashqari elastik tolalar xam mavjud buladi.

Charm mahsulotlari ishlab chikarishda teridan epidermis va jun tolalarini qoplami tushiriladi (olib tashlanadi) asosiy parda esa tayyor charmni yuz qismi bo'lib qoladi.

Negiz pardani tagida issik bardosh yoki burtma qavat joylashgan bo'lib, uning pastki chegarasida negiz soch tolasi piyozchalari va teri bezo'lari joylashgan bo'ladi. Terining eng rivojlangan qismlarida bu qavat burtma shaklda epidermisga botib, burtib turadi. Shuning uchun xam bu qavat burtma qavat deb nomlangan. Issiqbardosh qavatning ichida soch ildizlari, teri va yog' bezlari, qon va limfatik tomirlar, charm mushaklari qaysi kim organizm faoliyatida qatnashib xayvon tanasining xaroratini tartibga solib turuvchi qavat xisoblanadi. Shuning uchun bu qavatni xarakatni tartibga soluvchi qavat deb yuritiladi. Xaroratni tartibga soluvchi qavatda soch ildizlari oraliqlarini, charm bezlari atrofini va boshqa tartibiy tuzilish qavatlarni oraliklarini kollagen tolalari to'ldirib turadi. Bu qavatning yuqori va o'rta pog'onlarida elastik tolalari quyuq to'r hosil qilib joylashgan bo'ladi.

Bu tolalar soch xaltachalari va charm bezlari atrofida juda xam guj-guj bo'lib joylashgandir.

Charm mahsulotlariga ishlov berganda epiteliy qon o'tkazuvchi tomirlar, to'qima maydonlari parchalanadi va ular olib tashlanadi. Shu olib tashlangan joylarda bo'shliklar xosil bo'ladi. Natijada esa pishirilgan charmni issiq bardosh qavati po'kkok bo'lib, qoladi, bu esa charmning mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qanchalik issiqbardosh qavat rivojlangan bo'lsa, shunchalik tayyorlangan mahsulotlar quvvatsiz bo'ladi.

To'r yoki retikulyar qavat issikbardosh qavati tagida joylashgan bo'lib, bu qavat charmni mustahkamligini, tarangligini cho'ziluvchanligi mexanik xususiyatni ta'minlaydi, shuning uchun ham bu qavatni mexanik qavat xam deb yuritiladi. Bu qavatni to'r qavat deb yuritilishning ma'nosi. Bu qavat tolalarining to'r shaklida ega bulishligidadir. Bu qavatda kollagen tolasining taramlagi issiqbardosh qavatligiga nisbatan qalinroq bo'lib murakkablashgan joylashishini tashkil qiladi.

8- Ma’ruza: **Charmbop xomashyosining xususiyati va tasnifi.**

Reja:

1. Charmbop teri xomashyosining tasnifi
2. Katta ulchamdagi charm xomashyosi
3. Mayda ulchamdagi charm xomashyosi
4. Chuchka terisi
5. Charm xomashyosining xillash tartibi

**Adabiyotlar:**

1. Зокиров М.Д.Атамуродов К.А.Хайдаров К.Х. Хайвонлар хом ашёси товаршуносли. Тошкент, 1999 й

2. Каспарьянц С.А. Кошилёв А.Ф. шкутов Ю.Г Товароведение и технология первичной обработки кожевенного сырья. Москва Легкая индустрия, 1977 й.

3. Muynabop,po'stinbop va charmbop terilarni ishlab chiqarishni uslubiy qullanmalari. Toshkent, 2008 y.

4. O'zinform agroprom targ'ibot va ilmiy- texnikaviy axborotlar Respublika markaziy «Bildirish»lari.

5. Muynabop, po'stinbop va charmbop terilari Davlat standartlari. 2000 y.

Charm xomashyosi muhim tovar xususiyatlari va ishlatilish maqsadlariga kura 3 ta katta guruxga bulinadi.

1. Katta ulchamdagi charm xomashyosi

2. Mayda ulchamdagi charm xomashyosi

3. Chuchka terisi.

**1. Katta uchlamdagi charm xomashyosi -** qoramol, buyvol, yaklar, yiliqlar, tuyalar va bug'ilarning, vazni shilingan holda 10 kg dan oshsiz, holida 9 kg, dan oshik bulgan terilarni kiritiladi. Vaznining qancha bulishidan katiy nazar eshaklar va xachirlarning terisi xam shu guruxga kiritiladi.
**2. Mayda ulchamlari charm xomashyosiga –** vazni 10 kg gacha boshsiz xolida esa 9 kg gacha, bulgan buzoqlarning va yilqilarning, kuylarning, xonaki va yovoyi echkilarning terilar kiritiladi.
**3.** Chuchqa terilariga xonaki va yovvoyi chuchqalarning xamda maydoni yangi shilingan xolda 30 dm dan oshiq bo'lgan chuchqa bolalarining terilari xam kiritiladi.

Katta o'lchamdagi charm xomashyosi qo'yidagi manbalardan olinadi.

1. Tanachalar terisi 5-7 oylikdan 12 oylikgacha bo'lgan tanaga va buqalar terisi bo'lib ularning yangi shilingan xoldagi vazni 10 kg dan 13 kg gacha bo'ladi, teri tuqimasini qalinligi va zichligiga qarab teri maydoni 180 $dm^3$ dan 230 $dm^2$ gacha bo'ladi.
2. Teri tuqimasining qalinligi standart nuqtasida 2.7-3.5 mm buladi. Buqa terisi yangi shilingan xolda vazni 13-17 kg gacha buladi yosh buqalar terisi. Xayvonlarning yoshi 10 oylik va undan katta buladi. Bu terilarning maydoni 220 $dm^2$ dan 300 $dm^2$ gacha buladi.

Toychalar terisiga nisbatan buqa terisi ayrim topografik kismlardagi qalinligi buyicha ancha notekisligi bilan farq qiladi. Bu terilardan oyoq qiyimlarining, botiliklarini tikishdan foydalaniladi. Ishlov berilgan terilarining maydoni 219 $dm^2$ dan 237 $dm^2$ gacha tashkil kiladi.

Bu terilar yengil vazni 13-17 kg gacha, urta 17-25 kg, og'ir 25 kg dan ortik guruxlarga bulinadi. Ularning maydoni 200-480 $dm^2$ bulishi mumkin. Xar xil topografik qismlarda qalinligi 255-4,5 mm ni tashkil kiladi. bu terilar xromli charm, poyfzal tanliklari, texnik charmlar (kalinligi 4 mm gacha bulsa) ishlab chiqarishga muljallangan. Ishlov berilgan xoldagi maydoni 240-428 $dm^2$ tashkil qiladi.

Axtalangan xukizlar terisining yangi shilingan tirik vazni 17 kg dan oshiq bulishi lozim.

Vazniga ko'ra bu xil terilar yengil 17-25 kg va og'ir 25 kg dan ortiq guruxlarga bulinadi. Terining maydoni 250-500 $dm^2$ ni tashkil qiladi. Terining standart nuktasidagi qalinligi yengil terilarda 2,5-3,5 mm, og'irlarda esa 3,5-5 mm tashkil qiladi.

Axtalangan xukizlar terisi ayrim topografik qismlardagi qalinligi buyicha ancha tekisdir.

Bu terilardan xromli charm, og'ir terilaridan poyfavzal tanliklari, texnik charmlar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Xukiz (axta kilimagan) terisi yangi sh ilingan xoldagi vazniga qarab yengil 17-25 kg va og'ir 25 kg ortiq buladi. Terining maydoni 300-500 $dm^2$ tashkil qiladi. Ishlov yuberilgan xolda 260-440 $dm^2$ tashkil qiladi.

Standart nuqtaligidagi qalinligi 4,5-5,5 mm bulib, ayrim topografik qismlarda bu kursatkich 4 mm dan 10 mm gacha uzgaradi.

Buyvol va yaklarning terilari xam xuddi qoramolning katta terisi kabi xillanadi va ishlatiladi.

Tuya terisi yangi shilinlan xolda 10 kg dan 25 kg gacha , yengillari 10 kg-17 kg gacha va og'irlari 25 kg dan ortiq buladi. Maydoni esa 340-460 $dm^2$ tengdir. Standart nuqtasidagi qalinligi 3,5-5,0 mm ga tengdir. Tuya terilaridan xromlangan charm, poyafzal tagliklari ishlab chiqariladi. Qoramol farqli ularoq tuya terilari ularda urpoq bulganligi sababli 2 bulib shilib olinadi yoki 3 ga bulinadi.

Yilqi terisi – yangi shilingan xolda 10 kg dan ortik bulgan yengil 10-17 kg dan ortiq. Terining maydoni 160-420 $dm^2$ tashkil qiladi.

Eshak va xachir terilari vazni toyfalariga bulinmaydi. Maydoni 70-250 $dm^2$ , qalinligi 1,8-3,5 mm tengdir bulardan xromli charm va yetarlik charmlari ishlab chikariladi.

**Mayda o'lchamdagi charm xomashyosi manbalari olinadi.**

**1.** Chala va ulik tug'ilgan buzoqlar terisi vazni buyicha farqlanmaydi. Bu terilar yangi ishlangan yoki tuzlab kuritilmagan xolida 30-70 $dm^{2.}$ Go'sht, parda tomonida qizil dog'lar, qon izlari qon tomirlari yog'on kuziga tashlashnishi bilan ajratib turadi, bu terilarning og'irligi 2 kg dan maydoni 40-70 $dm^2$ oshmaydi va ulardan charm. Xamda muyna maqsadlarga foydalaniladi.

2. Tug'ilib ut yeyishiga utmagan buzoqlar terisi – jun qoplami tulamagan, yaltiroq va zich teri tuqimasi mustahkam bulib, vazniga kura farklanmaydi.

3. Tugilgandan keyin ut yeyshigiga utgan buzoqlar terisi vazni 10 kg gacha buladi. Terilarning jun qoplami ancha siyraklashadi, teri tuqimasi bush buladi, bu terilarning jun qoplami ancha siyraklashgan. Teri tuqimasi bushagan. Ishlov berilgan terining maydoni 126-178 $dm^2$ . Xromlangan charm ishlab chiqarishda foydalaniladi.

4. Chala va uliq tugilgan kulunlar terisi vazniga kura farqlanmaydi.

5. Toychoqlar terisi – sut emib yurgan yoki yeyishiga utgan toychoqlar terisi: yangi shilingan xoldagi vazni 5 kg gacha buladi.

Sut emib yurgan toychoqlar terisi kalta. Yaltiroq, jun qoplamiga ega bulib teri tuqimmasi zich. Yem-xashak yeyishiga utgan toycholqar terisining jun qoplami siyraklashgan, teri tuqimasi bushagan buladi. Sut emib yurgan toychoq terisi 50-70 $dm^2$ yem xashak utgan 70-105 $dm^2$tashkil qiladi.

6. Toy terisi – yangi shilingan xolda 5-10 kg gacha buladi maydoni 105-125 $dm^2$ buladi. Toychoqlar terisi kabi foydalaniladi.
7. Butaloqlar terisi vazni 10 kg gacha buladi.
8. Rus kuylarning terisi – kalta dum. Ingichka dum va yogli dum tuzilishidagi barcha dag'al junli kuy zotlarining xamda barra teri beruvchi katta yoshli qo'ylarning terisi, tuqimasi mustahkam. Nozik va qayishqoq, kuprok qora rangda buladi. Roman zotining terining jun qoplami esa kuk yeki sal xavo rangda buladi. Junlari mayin sal tulqinlangan jingalakda buladi. Teri maydoni 65-72 $dm^2$ tashkil qiladi. Bu terilardan buyumlar ishlab chiqariladi.
9. Chul kuy terilari – dag'al jun beruvchi dumbali va katta yoshdagi korakul kuylaridan olinadi. Teri tuqimasi nisbatan qalin, dag'al va bushagan, juni kupincha jigar. Qizgich, och kuk. Tuk-kuk rangda, qilchik tolalari siliq tivit tolalari esa nozxik va yumshoq buladi.

10. Chul echkilarining terisi – Azarbaydjon, Armaniston, Grujiston, Urta Osiyo, Kozog'iston urchitiluvchi echkilardan olinadi. Chul echkilarning terisida bir tusda uzun qilchik tolalari qalta tivit tolalari bilan aralashib usadi.
11. Mayin yuqshoq echki terisi – teri tuqimasi qayishqoqligi ishlov berilganda bet qismida chiroyli naqshlar paydo buladi. B terilar asosan sutdor va sutdor tivitli, echki zotlaridan xamda jun yokkasildagi echkilar Orenburg echki zotlaridan olinadi.
12. Yovvoyi echki terilari – yovvoyi echkilardan jayron, kiyiq arxar, tog' takalaridan ovlab olinadi. Katta yoshdagi xayvonlarning terisi 60-100 $dm^2$ tashkil qiladi. Bu terilardan kupkari va astarlik charmlar ishlab chikariladi.

Chuchka terisi – xonaki va yovvoyi chuchkalardan olinadigan sath ulchamiga qarab guruhlarga ajratiladi, yangi shilingan xolida:

A) mayda terialr 30 $dm^2$ dan 70 $dm^2$ gacha

B) urta terilar 71-120 gacha

V) katta terilar 120 – 200 $dm^2$ gacha va urta katta 200 $dm^2$dan ortiq buladi.

Mayda va urta ulgan chuchka terilardjan xromlangan charm poyafzal ishlab chiqariladi.

## 9-Ma'ruza: **Pustinbop va muynabop terilarning xususiyatlari va tasnifi**

REJA:

1. Muynabop qo'y terilarining xususiyatlari va tasnifi.
2. Pustinbop qo'y terilarning xususiyatlari va tasnifi.

**Adabiyotlar:**

1. Зокиров М.Д.Атамуродов К.А.Хайдаров К.Х. Хайвонлар хом ашёси товаршуносли. Тошкент, 1999 й

2. Каспарьянц С.А. Кошилёв А.Ф. шкутов Ю.Г Товароведение и технология первичной обработки кожевенного сырья. Москва Легкая индустрия, 1977 й.

3. Muynabop,po’stinbop va charmbop terilarni ishlab chiqarishni uslubiy qullanmalari. Toshkent, 2008 y.

4. O’zinform agroprom targ’ibot va ilmiy- texnikaviy axborotlar Respublika markaziy «Bildirish»lari.

5. Muynabop, po’stinbop va charmbop terilari Davlat standartlari. 2000 y.

Qo’ylarni beradigan mahsulotlariga qarab turt xil turga ajratib urganiladi: mayin junli, yarim mayin junli, yarim dagal va dagal junli. Barcha qo’y terilaridan olinadigan xom ashyolarni ishlab chiqarish buyurtmasiga asosan uchta guruhga – muynabop olinuvchi qo’y terilari pustinbop olinuvchi qo’y terilari va charm olinuvchi kuy terilariga ajratiladi. Qo’y terining mikrostrukturalari ma’lum bir xususiyatga ega bulganligi uchun ulardan ishlagan yarim fabrikatlar pishiqligi bilan yorituvchanligi va xamda urta suv utkazuvchanligi bilan yorituvchanligi va xamla urta sutv utkazuvchanligi bilan ajralib turadi. Terining tuqimasining epidermisi, terining umumiy qalinlini 1-2,5 % ni tashkil qiladi. Charm i/ch sanoatida yarim fabrikatning sifatiga ta’sir ko’rsatmaganligi sababli epidermisi jun qoplami bilan birgalikda ta’sir kursatmaganligi sababli epidermisi jun qoplami bilan birgalikda olib tashlanadi. Muynabop i/ch epidermis muhim ahamiyatga ega bulganligi sababli, epidermisga juda ehtiyotlik bilan mshlov beriladi, chunki shikastlangan epidermisdan jun qoplami tukilib ketadi.

Muynabop teri beruvchi qo’ylarning jun qoplami bir xilda bo’lishiga kurinishiga karab ma’lum darajada, yarim fabrikat va buyumni baholashda muhim bo’lganligi va muynabop terini sifatini aniqlab beradi. Kuyuk (tigiz) jun qoplamiga ega bulgan qo’y terilaridan tayyorlangan muynabop terilari uzining pishiqligi, umumiy kurinishini, issiqni saqlash qobiliyati va chidamligi bilan siyrak jun qoplamiga ega bo’lgan qo’y terilariga nisbatan ma’lum darajada ustun turadi. Jun qoplamining tigizligini (qo’yuqligi) ko’p xollarda jun tolalarining ingichkaligi bir xil bo’lishi bilan uzviy bog’liq buladi. Mayin jun beruvchi qo’ylarning jun qoplami uta tigiz joylaganligini qo’y terilarining umumiy yuzasi ko’proq qismini qoplab turgan junning uzunligi va ingichkaligini bir-biriga mos tushishi, tekisligi xom ashyoni va yarim fabrikatni sifatiga katta ta’sir kursatadi. Mayin jun beruvchi qo’ylarning butun maydoni tivit bilan qoplaganlari, ingichkaligi va tigizligini butun maydoni tivit bilan qoplaganlari bulsa bunday qo’y terilari uzining jun qoplami bilan uta tekisligi bilan ta’riflanadi.

**Yarim mayin jun beruvchi qo’y terilari**. O’zining urta yoki yirik tulkinsimon (jingalak) bir xil shtapell tuzilishiga ega bulishi bilan ifodalanadi.Chetlari va

oyoqlari jun qatlamlarini uchlari kokili tuzilishiga ega bulishi, terisining butun maydoni buylab alohida usgan oralik tolalari bulishiga ruxsat beriladi. Sigay qo'ylarning junlarini mayinligi 46 sifat kursatkichlari (34,1-37 mkm) bulishligi ruxsat beriladi. Yarim mayin jun beruvchi qo'ylarning turi bir muncha kupolroq, ayrim tolalarning ingichkaligi uzaro farq qiladi.Yarim dag'al muynabop beruvchi qo'y terilari. Bu terilar bir xil bulmasligi qokilchalari shtapelda aralash tuzilishiga ega bulishligi bilan xarakterlanadi. Yetarli darajada tivit va qupol bulmagan uzunroq oralik va qilchik tolalari bulishligi bilan ta'riflanadi.

**Pustinbop olinuvchi qo'y terilari**. Pustinbop olinuvchi qo'y terilariga urta va katta yoshdagi xar xil dag'al jun beruvchi (qiskabumli, oriq uzun dumli, uzun yog'li semiz dumli, dumbali, kavkaz zotli barra teri beruvchi va korakul) kuy zotlari kiradi.Bu terilar uz tukimalarining tuzilishi va holatiga qarab va jun qoplamini xolatiga qarab xar xil kiyim tikish uchun yaroqli xisoblanadi. Terining maydoni va vazni kursatkichlari pustinbop ishlab chikarishdan junda katta axamiyatga ega I JDS 28509-90 standartlariga eng kichik ishlov berilmagan pukstinbop qo'y terilarni Romanov qo'y zotidan, xamda katta yoshdagi qo'ylardan 35 $dm^2$ dan ortiq, shirbozni 25 $dm^2$ dan ortiq maydonga ega bulganlari va pustinbop beruvchi qo'y terilari 18 $dm^2$ dan yuqvori bulishi kerak. Terilarning qalinligi va pishiqligi – buyum ishlab chiqarishda terining qalinligi sag'rida 1,8-2,5 mm ni tashkil qiladi, xar xil jinslarga qarab qo'ylarning terisini qalinligi turlicha buladi. Yosh xayvonlarning terisi yupqaroq buladi. Terining tuqimasining pishiqligi nafaqa kollagen tolalarni rivojlanishiga bog'liq buladi. Shuningdek yog' tukimalarini xam rivojlanishiga ta'sir kursatadi. Teri tuqimasini yog'li bulishi buyashga katta ta'sir kursatadi.

Barcha dagal jun beruvchi qo'y terilari GOST I JDS 28509-90 ga I DJS 8439-57, i JDS 6192-57 buyicha Romanov. Rus chul qo'y terilariga ajratiladi.

Charm olinuvchi qo'y terilari. Charm beruvchi qo'y terilariga barcha dagal jun beruvchi qo'ylarni jun qoplami va teri tuqimasini sifati, pustinbop buyumlarni tayyorlash uchun kerak bulmagan va talabga javob bermagan qo'y terilari kiritiladi. Bular qatoriga chul. Rus va qatta yoshdagi romanov qo'ylarning maydonining kengligi 35 $dm^2$ dan kam bulmasligi, junsiz juni kirkilgandan keyin usib ulgurmagan, shuningdek ulgan qo'y ustidan juni kirkib olingan siyrak jun qoplamiga ega bulgan qo'y terilari 50% dan ortiq maydoni tullash va jun tukilishi nishonasi bulgan, jun qoplamida juda kup sinuvchav va ulik soch tolalari bo'lgan, chukur botgan tozxalab tashlash imkoniyati bulmagan chakirtikanli yoki yotik jun qoplamiga ega bulmagan (svalennqy) maydonining katta qismini juni tukilib kam bulib qolgan, junini qaysi bilan chala qirkalgan va boshqa nuksonlardan iborat jun qoplamidan, shuningdek terixur va kuya jaroxatlangan va uta oriqlashi natijasida. Jun qoplamidan kul bilan kuchsiz tortganda o'zilib ketgan terilarini kirgiziladi. Rus va romanov qo'y terilaridan aoyabzalni ustki qismi uchun ust bosh kiyimlari, charmlar, surat solgich charm, attorlik va kulpoqlik charmlari olinadi. (Chul qo'ylaridan, poyabzal va ust-bosh shobroni, astralik va kulmoq charmi olinadi).